

MEDA KASALLIKLARI

Ilmiy rahbar: Jo'raqulov Bunyod Iskandarovich

Talaba: Qodirova Go'zal Ulug'bek qizi,

Botirova Guliza Rashid qizi,

Allayorova Dilrabo Rufat qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oshqozon kasalliklari gastrit, oshqozon yarasi, ularning alomtlari, kelib chiqish sabablari, tekshirish va davolash usullari hamda vaqtida davolanmasa kelib chiqadigan boshqa kasalliklar yoritilgan.

Kalit so'z: Meda, oshqozon yarasi, gastrit, ko'ngil aynishi, qayt qilish, oshqozondagi og'riqlar, qorin dam bo'lishi, Almagel, Aspirin, Diklofenak, Omeprazol, Sukralfat, atrafiya, oshqozon saratoni.

Kirish: Hozirgi kunda oshqozon, jigar, ichak va boshqa hazm a'zolarining kasalliklari keng tarqalgan. Bunga sabab insonlarning noo'rin vaqtda, noto'g'ri mahsulotlar iste'mol qilishi va kasalliklarning boshlang'ich alomatlariga bee'tiborligidir. Hozirgi kunda ko'p tarqalgan hazm qilish sistemasi kasalliklariga gastrit, yazva, enterit, jigar serrozi va boshqalar kiradi.

Gastrit bu- oshqozon shilliq qavati yallig'lanishi bilan kechadigan kasallik.

Kelib chiqish sabablari: Haddan tashqari achchiq, sho'r, qovirilgan taomlar, spirtli ichimliklar, aspirin, diklofinak kabi yallig'lanishga qarshi nosteroid preparatlar, garmonlar, glukokartikoidlar kabilarni uzoq vaqt qabul qilish va bazi holatlarda bakteriya oshqozon shilliq qavatiga joylashib uni yallig'lantirishi hisobiga kelib chiqadi.

Alomatlari: Oshqozonda og'riq, ko'ngil aynishi, qusish, ishtaxaning pasayishi, og'izda nordon va achchiq ta'm, qorin dam bo'lishi kabi holatlar kuzatiladi.

Tekshiruv usullari: Eng asosiy usul- gastrokopiya. Bu usulda maxsus moslama yani endoskop yordamida oshqozon devori ichkaridan ko'riladi. Bundan tashqari yallig'lanish darajasini va gemoglobin miqdorini aniqlash uchun qon tahlili o'tkazish kerak.

Davolash choralari: Ko'roq iliq, suyuq ovqatlar, sut mahsulotlari, bug'da pishirilgan taomlar iste'mol qilish kerak. Achchiq, sho'r ovqatlar, gazli ichimliklar, qahva, fast-food va konserva mahsulotlaridan tiyilish, ovqatni muntazam oz-ozdan yeyish kerak. Bundan tashqari oshqozon kislotaliligini yo'qotish uchun Omeprazol, kislotani neytrallash uchun Almagel, oshqozon devorini himoya qilish uchun Sukralfat kabi dori vositalaridan foydalaniladi.

Agar gastrit e'tiborsiz qoldirilsa quyidagilarga olib kelishi mumkin:

1. Oshqozon yarasi (yazva);

2. Oshqozon ichki qon ketishi;
3. Oshqozon shilliq qavatini ingichkalashuvi;
4. Oshqozon saratoni xafini oshiradi.

Oshqozon yarasi (yazva) – bu oshqozon devori ichki shilliq qavatini va undan chuqurroq qatlamlarning nekrozi (to'qimalar o'lishi) bilan kechadigan kasallik. U gastritdan farqli ravishda, faqat shilliq qavat emas, balki mushak (muskulyar plastinka) va bazan seroz qavatgacha yetib boradi.

Oshqozon yarasi kelib chiqish sabablar: gastritning kelib chiqish sabablariga o'xshaydi. Yazva ko'pincha irsiy moyillik va garmonlar buzilishidan kelib chiqishi mumkin.

Alomatlari: epigastral sohada og'riq, ko'ngil aynishi qusish, kislotali kekirish, qusuqda qon bo'lishi yok inajas rangi qora bo'lishi, vazn yo'qotish va holsizlik..

Tekshirish usullari:

1. FGDS(fibrogastroduodenoskopiya) – eng asosiy usul yara joyi ko'rinadi.
2. Nafas testi, qon yok inajas tahlili orqali
3. Qon tahlili – anemiya va yallig'lanish belgilarini aniqlaydi.
4. Roentgen tekshiruv – contrast suyuqlik bilan.

Oldini olish:

- 1.To'g'ri ovqatlanish
- 2.Dorilarni faqat shifokor tavsiyasi bila ichish
- 3.Helicobakter pylori infeksiyasini davolash
- 4.Stresni kamaytirish.

Oshqozon yarasining gistologik hosil bo'lish bosqichlari

1. Shilliq qavaq shikastlanadi – himoya mexanizmi buziladi
2. Nekroz bosqichi – hujayralar nobud bo'ladi
3. Yallig'lanish bosqichi – leykotsitlar to'planadi va to'qima shikastlanadi
4. Granulyatsion to'qima hosil bo'ladi – yangi qon tomir va fibroblastlar hosil bo'ladi
5. Fibroz (chandiqlanish) bosqichi – yara bitib chandiqlanish bilan almashinadi.

Surunkali yaralarda yangi nekroz va eski chandiqlanish bir vaqtning o'zida kuzatiladi.

XULOSA: Gastrit – oshqozon faoliyatiga jiddiy tasir ko'rsatuvchi kasallik bo'lib, uni etiborsiz qoldirish kelajakda og'ir asoratlar, jumladan yarava hatto o'sma kasalliklariga olib kelishi mumkin. Kasallikning oldini olish uchun to'g'ri ovqatlanish, zararli odatlardan voz kechish, stresni kamaytirish va gigiyena qoidalariga rioya qilish zarur.

Oshqozon yarasi – bu himoya va zararli omillar muvozanatini buzilishi natijasida shilliq qavatdan boshlab chuqur qatlamlarga qadar boradigan nekrotik-yallig'lanish jarayonidir.

Demak oshqozon kasalliklarini o'z vaqtida aniqlash va davolash inson hayot sifati va sog'lig'ini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov A.A., Murodov Sh.Sh. “Gastroenterologiya asoslari.” – Toshkent: Tibbiyot akademiyasi nashriyoti, 2019.
2. Sharipova D.X., “Ichki kasalliklar (Gastroenterologiya bo'limi).” – Toshkent: O'zbekiston davlat tibbiyot nashriyoti, 2021.
3. Qurbonova M.x., Raxmatova G.M. “Ichki kasalliklar propedevtikasi.” – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2018.